BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

ABDULLAYEV DAVLATALI ALIJON O‘G‘LI

O‘ZBEKISTON FLORASIDAGI *EREMURUS* M. BIEB. TURKUMI TURLARINING INTRODUKSIYA SHAROITIDAGI BIOLOGIYASI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K:581.52.582.572.2

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Abdullayev Davlatali Alijon o‘g‘li
O‘zbekiston florasidagi *Eremurus* M. Bieb. turkumi turlarining introduksiya sharoitidagi biologiyasi..... 5

Абдуллаев Давлатали Алижон угли
Биология видов *Eremurus* M. Bieb. флоры Узбекистана в условиях интродукции …..…….....23

Abdullayev Davlatali Alijon ogli
Biology of species *Eremurus* M. Bieb. of the flora of Uzbekistan under conditions of introduction ……43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works …….…….....47

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

ABDULLAYEV DAVLATALI ALIJON O‘G‘LI

O‘ZBEKISTON FLORASIDAGI *EREMURUS* M. BIEB. TURKUMI TURLARINING INTRODUKSIYA SHAROITIDAGI BIOLOGIYASI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/B629 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (resume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.botany.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot–ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Pechenitsin Vladimir Petrovich** biologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Karimov Farhod Isomiddinovich** biologiya fanlari doktori
	Samatova Shohista Azamatovna biologiya fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “28 ” fevral kuni soat 15^{30} dagi majlisida bo‘lib o‘tdi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (64-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “14” fevral kuni tarqatildi.
(2025-yil 14” fevral 3-raqamli reyestr bayonnomasi).

K.Sh. Tojibayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., akademik

U.H. Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d, katta ilmiy xodim

X.F. Shomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda biologik xilma-xillikni saqlab qolish, o‘simliklar olamini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish global muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Bioxilma-xillikning global baholash UNEP ma’lumotlariga ko‘ra, “... bugungi kunda turli omillar natijasida 30 000 dan ortiq o‘simlik va hayvon turlari yo‘qolib ketish xavfi ostida turibdi”. Shu munosabat bilan, tabiiy floraning manzarali, noyob va kamayib borayotgan turlarini aniqlash va ularni saqlab qolish yo‘llarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Tabiatni muhofaza qilish xalqaro tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2000-yilda 34000 dan ortiq o‘simlik turlari yo‘qolib ketish havfi ostida bo‘lgan bo‘lsa, bu raqam 2021-yilga kelib 54127 turni tashkil etmoqda. Yer yuzida har yili deyarli 1000 ga yaqin tur muhofazaga muhtoj turlar qatoriga kiritilmoqda. Ayni vaqtda dunyoning 153 mamlakatida 2200 dan ortiq Botanika bog‘lari va arboretumlar tashkil qilingan bo‘lib, ularda tabiiy floraning 30% ga yaqin turlari saqlanadi.

Bugungi kunda dunyoda o‘simliklarning manzarali, noyob va kamayib borayotgan turlarining sistematikasi, ekologiyasi, introduksiyasi o‘rganish va saqlab qolish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunga ko‘ra, kamyob va manzarali geofitlarni o‘sish sharoitlariga morfologik va ekologik jihatdan moslashuvchanligi o‘rganilib, introduksiya (*ex situ*) sharoitida mikroklonal (*in vitro*) ko‘paytirish yo‘llari takomillashtirilmoqda. Shuni ta’kidlash lozimki, o‘zining kamyobligi va manzaraliligi bilan alohida ajralib turuvchi, ko‘kalamzorlashtirish, oziq-ovqat va texnika sanoatida keng qo‘llanilayotgan *Eremurus* M. Bieb. turkumi vakillari alohida ahamiyatga ega. Turkum vakillarining tabiiy va introduksiya sharoitlaridagi biologik xususiyatlarini o‘rganish, introduksiya qilish, o‘sish-rivojlanishi va iqlimlashishini asoslash, *ex situ* sharoitida kolleksiyalarini yaratish, ko‘paytirish yo‘llarini ishlab chiqish, obodonlashtirishda foydalanish samaradorligini baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Hozirda mamlakatimizda o‘simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish va biologik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish bilan bog‘liq qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida 10 ga yaqin qonun va qarorlar qabul qilindi. Huquqiy hujjatlarda respublikamizning bioxilma-xilligini o‘rganish, noyob turlarni asrab-avaylash, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni aniqlash vazifalari belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-76-sonli “Atrof-muhitni muhofaza qilish va davlat organlarining ekologik nazorat sohasidagi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[1] Qarorda “biologik xilma-xillikni tiklash, ko‘paytirish va saqlashning rag‘batlantirish tizimi va aniq mexanizmlarini joriy etish” vazifasi belgilangan. Bu vazifadan kelib chiqib, O‘zbekiston florasidagi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-76-son “Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

Eremurus M. Bieb. turkumi turlarining tabiiy populyatsiyalarini aniqlash, muhofazalash, biologik xususiyatlarini asoslash, *ex situ* sharoitida kolleksiyasini yaratish va ko‘paytirish, obodonlashtirish sohasiga tadbiq etish, turlarning tarqalishini aks ettiruvchi xaritalar yaratish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 21-sentabrdagi 409-sonli “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida” gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-sentabrdagi 3256-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti va Zoologiya instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 484-sonli “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori hamda ushbu sohada qabul qilingan boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo miqyosida *Eremurus* turkumining 45-50 turlari W. Li et al. (2020), POWO (2024) ma’lumotlar bazasiga ko‘ra 59 turi tarqalgan.

Turkum turlari ustida olib borilgan filogenetik tadqiqotlar S.K. Naderi et al. (2009), K.N. Safar et al. (2014), D. Makhmudjanov et al. (2019); kimyoviy tarkibini - A.D. Mixeyev (2023), D.S. Sattarov et.al. (2015), S. Kanaani et al. (2015), A. Abdullayev et.al (2016), S.Y. Naumov et al. (2016), K. Turdumambetov et al. (2016), Y.X. Safarov (2016), G.A. Bakirova (2016), D.N. Ikromova et al. (2017), I.D. Karomatov et al. (2017), Z. Tuzcu et al. (2017), L. Karakaya et al. (2017), A.I. Ashurov et al. (2018) va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan.

Eremurus turkumi turlaridan tibbiyotda turli dori vositalarini olish va tayyorlash, kasalliklarda foydalanish chora-tadibirlari F. Schiappacasse et al. (2013), R. Gaggeri et al. (2013), M. Beigi et al. (2019), M. Beiranvand et al. (2022) kabi ko‘plab olimlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Markaziy Osiyo florasida tarqalgan turkum turlarining sistematikasi va geografiyasi bo‘yicha tadqiqotlar R.V. Kamelin (1973), T.I. Ryabova (1977), N.A. Axnetova (1993), G.A. Lazkov, B.A. Sultonova (2012) lar tomonidan olib borilgan.

O‘zbek botanik olimlaridan N.Y. Beshko (1999), K.SH. Tojibayev (2010), F.O. Xasanov va boshq., (2013), F.I. Karimov (2016), O.T. Turginov (2017), D.E. Azimova (2018), U.H. Qodirov (2020), N.T. Achilova (2021),

A.S. Abduraimov (2021) larning floristik tadqiqotlarida turlarning hududlar kesimida tarqalishi borasida malumotlar keltirilgan.

Biroq bu tadqiqotlar *Eremurus* turkumi turlarining introduksiya sharoitdagi biologik va reproduktiv xususiyatlarini to‘liq ochib bera olmaydi. Shunga ko‘ra turkumi vakillarining O‘zbekiston florasida tarqalgan turlarining sistematikasi, geografiyasi, introduksiya sharoitdagi biologik xususiyatlari o‘rganish hamda muhofazaga muhtoj turlarni himoya qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va *ex situ* sharoitda saqlab qolish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Botanika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq VA-FA-F-5-008 “O‘zbekiston florasi kamyob endem turlari genofondini *ex situ* sharoitida saqlab qolishning ilmiy asoslari va ularni ko‘paytirish biologiyasi” (2017-2019 yy.) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Botanika bog‘ida *Eremurus* turkumiga mansub turlarni introduksiya sharoitida biologiyasini o‘rganish, geografik tarqalishini aniqlash va kolleksiyasini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘zbekiston florasida tarqalgan *Eremurus* turkumi turlarini Toshkent Botanika bog‘iga introduksiya qilish va kolleksiyasini yaratish;

introduksiya qilingan *Eremurus* turlarining fenologiyasini o‘rganish;

urug‘ biologiyasini o‘rganish va reproduktiv strategiyaning xarakterini aniqlash;

gul poyaning turli qismlari bilan urug‘ning absolyut massasi o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini aniqlash;

urug‘lar unishi va maysalarning o‘sishiga urug‘ xilma-xilligining ta’sirini o‘rganish;

introduksiya sharoitida Qizil kitobga mansub va keng tarqalgan turlar biologik xususiyatlarining qiyosiy tahlilini o'tkazish;

turlarining botanik-geografik rayonlar va tik mintaqalar bo‘yicha tarqalishini tahlil qilish;

Eremurus robustus kamyob turini tabiiy yashash joylariga reintroduksiya qilish.

Tadqiqotning obyekti O‘zbekiston florasida tarqalgan *Eremurus* M. Bieb. turkumi turlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti *Eremurus* M. Bieb. turkumi turlarining introduksiyasi, morfologiyasi, fenologiyasi, geografiyasi va ko‘paytirish usullari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada morfologik, biologik, introduksiya, urug‘ mahsuldorligini aniqlash, geografik, shuningdek, biologik obyektlarning GAT xaritalari va statistik hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Eremurus turlarining gullash muddatlari va gullashning boshlanishi uchun zarur bo‘lgan o‘rtacha sutkalik haroratlar yig‘indisi bo‘yicha farqlanuvchi

guruhlari aniqlangan;

O‘rganilgan *Eremurus* turlari o'zgaruvchan (labil) reproduktiv strategiya bilan ajralib turadi, uning samaradorligi turning yashovchanligi, yorug‘lik ta’siri va ayrim turlar uchun gullash paytida havo harorati va namligiga bog'liq;

O‘rganilgan *Eremurus* turlari generativ organlar ko‘rsatkichlari orasida bog‘liqlik mavjudligi va yo‘nalishi bo‘yicha sezilarli farqlarga ega ekanligi aniqlangan;

Urug‘larning ochiq grunt sharoitida unuvchanligi ularning mutloq (absolyut) massasiga bog‘liq ekanligi aniqlangan. Yirik urug‘lardan ungan nihollar yuqori darajali metabolizm va zahira oziq moddalarni tutuvchi ildizlarga ega ildizpoyaning jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadi;

Qizil kitobga mansub turlar erta gullashi, mevalarni kam xosil bo‘lishi, urug‘larning past unuvchanligi, vegetativ ko‘payish qobiliyatining sustligi kabi biologik xususiyatlari bilan keng tarqalgan *Eremurus* turlaridan introduksiya sharoitida ham ajralib turishi aniqlangan;

balandlik mintaqalar bo‘yicha 4 tur cho‘l, 13 tur adir, 23 tur tog‘, 3 tur yaylovlarda tarqalgan bo‘lib, tog‘ va adir mintaqalari uchun esa 7 turdan, cho‘l mintaqasi uchun esa 3 tur xos ekanligi aniqlangan;

Eremurus robustus misolida O‘zbekistonda ilk bor O‘zbekiston Qizil kitobga kiritilgan turlarni tabiiy yashash joylariga muvaffaqiyatli reintroduksiya qilish imkoniyati ko‘rsatilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Eremurus turkumi turlarini manzaraliligi va suvsizlikka chidamlilik xususiyatlarini inobatga olgan holda obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirishda foydalanish yo‘llari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

Eremurus turkumi turlarini saqlab qolish, ko‘paytirish va tabiatga reintroduksiya qilish maqsadida Toshkent Botanika bog‘ida 27 turdan iborat kolleksiyasi yaratilgan;

O‘zbekistonda Qizil kitobga mansub *Eremurus robustus* turni tabiiy yashash joylariga muvaffaqiyatli reintroduksiya qilingan;

O‘simliklarni urug‘idan ekilganda 4-5 yildan, vegetativ ko‘payganda 1-2 yildan boshlab ko‘kalamzorlashtirishda foydalanish mumkinligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda zamonaviy usullarning qo‘llanilganligi va ular asosida olingan natijalarning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, ma’lumotlarning statistik tahlil qilinganligi, shuningdek, olingan amaliy natijalarini vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi, *Eremurus* turkumi noyob va endem turlari kolleksiyasi yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekiston florasidagi *Eremurus* turkumi turlarining introduksiya sharoitida biologik xususiyatlari o‘rganilganligi, turlarda introduksiya va iqlimlashtirish jarayonida ro‘y beradigan o‘zgarishlarni ochib berilganligi, ekologik moslashuvchanlikning o‘simliklarning reproduktiv strategiyasida namoyon bo‘lishini ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tabiatni muhofaza qilish va bioxilma-xillikni saqlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, noyob va kamayib borayotgan turlarni tabiiy sharoitda populyatsiyalarini reintroduksiya qilish, noqulay sharoitlariga chidamli turlardan obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirishda foydalanishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston florasidagi *Eremurus* M. Bieb. turkumi turlarining introduksiya sharoitidagi biologiyasi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

O‘zbekiston tog‘li hududlarida tarqalgan *Eremurus* turkumi noyob, endem va O‘zbekiston Qizil kitobga kiritilgan turlarni saqlab qolish, ko‘paytirish hamda reintroduksiya qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar Toshkent Botanika bog‘i geofit turlarini *ex situ* sharoitida ko‘paytirish faoliyatiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2023-yil 22-iyundagi 4/1255-1363-son ma’lumotnomasi). Natijada, 25 turdan ortiq *Eremurus* kolleksiyasini yaratish va reintroduksiyasini amalga oshirish imkonini bergan;

Eremurus turkumi turlarining O‘zbekiston florasida tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalari va kamyob endem turlarini tabiiy yashash sharoitiga qaytarish orqali lokal populyatsiyalar yaratish va muhofazasiga doir ma’lumotlar Nurota davlat qo‘riqxonasi amaliy faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2023-yil 19-avgustdagi 03-03/3-3975-son ma’lumotnomasi). Natijada Nurota davlat qo‘riqxonasida tarqalgan O‘zbekiston Qizil kitobga kiritilgan turlar tarqalgan hududlarni aniqlash va qo‘riqxona hududida turkum vakillarining lokal populyatsiyasini yaratish imkonini bergan;

Eremurus turlaridan ko‘kalamzorlashtirishda foydalanish uchun tavsiyalar Toshkent shahar Obodonlashtirish bosh boshqarmasiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahar hokimligi Obodonlashtirish bosh boshqarmasining 2023-yil 21-dekabrdagi 1-13/2960-son ma’lumotnomasi). Natijada, Yunusobod tumani Bog‘ishamol ko‘chasining yo‘l yoqalariga ekilgan va muvaffaqiyatli sinovdan o‘tgan va ko‘kalamzorlashtirishda foydalanish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 102 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va

predmetlari to‘liq tavsiflangan, mavzuning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy va amaliy yangiliklari ochib berilgan, olingan natijalarni amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**O‘zbekiston florasida turkum turlarining o‘rganilishi, tadqiqot obyekti va metodlari”** deb nomlangan bobning birinchi bo‘limida *Eremurus* turkumining o‘rganilish tarixi, introduksiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning qisqacha tahlili va ishning metodlari va o‘rganilgan turlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.


Bobning birinchi bo‘limi *Eremurus* M. Bieb. turkumining o‘rganilish tarixi bo‘yicha xorijda va O‘zbekistonda olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari tahlil qilingan. Jumladan, turkum turlari ustida olib borilgan filogenetik tadqiqotlar – S.K Naderi et al. (2009), K.N Safar et al. (2014), D Makhmudjanov et al. (2019); kimyoviy tarkibini – D.N. Ikromova et al. (2017), Karomatov et al. (2017), Z. Tuzcu et al. (2017), L. Karakaya et al. (2017), A.I. Ashurov et al. (2018) va boshqa olimlar tomonidan ma’lumotlar keltirilgan. *Eremurus* turkumi turlarining tibbiyotda turli dori vositalarini olish va kasalliklarda foydalanish chora-tadibirlari – F. Schiappacasse et al. (2013), R. Gaggeri et al. (2013), M. Beigi et al. (2019), M. Beiranvand et al. (2022) kabi ko‘plab olimlar ishlarida yoritilgan. O‘rta Osiyo florasida tarqalgan turkum turlarining sistematikasi va geografiyasi bo‘yicha tadqiqotlar R.V. Kamelin (1973), T.I. Ryabova (1977), N.A. Axnetova (1993), G.A. Lazkov, B.A. Sultonova (2012) lar tomonidan olib borilgan. O‘zbek botanik olimlarining (N.Yu. Beshko, 1999, A.J. Ibragimov, 2010, K.Sh. Tojibayev, 2010, F.O‘. Xasanov va boshqalar, 2013, F.I. Karimov (2016), O.T. Turginov, 2017, D.E. Azimova, 2018, U.H. Qodirov, 2020, N.T. Achilova, 2021) floristik tadqiqotlarida turlarning hududlar kesimida tarqalishi borasida ma’lumotlar keltirilgan.

Bobning ikkinchi bo‘limida *Eremurus* turkumi turlarining introduksiyasi bo‘yicha ma’lumotlar A.P. Xoxryakov (1965), O.A. Titova (1969), N.A. Axnetova (1993) ishlarida yoritilgan.

Bobning uchinchi bo‘limida tadqiqot obyekti *Eremurus* turkumiga mansub turlar haqida ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib: *E. inderiensis*, *E. regelii*, *E. altaicus*, *E. turkestanicus*, *E. soogdianus*, *E. hissaricus*, *E. nuratavi*cus, *E. iae*., *E. olgae*, *E. stenophyllus*, *E. tianschanicus*, *E. robustus*, *E. anisopterus*, *E. lactiflorus*, *E. luteus*, *E. alberti*, *E. aitchisonii*, *E. ambigens*, *E. suworowii*, *E. baissunensis*, *E. kaufmannii*, *E. pubescens*, *E. korolkowii*, *E. lachnostegius* turlarni o‘z ichiga oladi. *Eremurus* turkumi ayrim turlarining asosiy morfometrik ko‘rsatkichlarini O‘zbekiston florasi I tomida keltirilgan ma’lumotlar bilan qiyosiy tahlili yoritilgan.

Dissertasiyaning “***Eremurus* turkumi turlarining fenologiyasi va urug‘ hosil bo‘lish biologiyasi**” deb nomlangan ikkinchi bobida introduksiya qilingan *Eremurus* turlarining fenologiyasi, urug‘ hosil qilish biologiyasi, reproduktiv strategiyasi hamda gulpoyaning turli qilsmlari bilan urug‘ning absolyut massasi o‘rtasidagi aloqalar mavjudligini o‘rganish natijalari keltirilgan. O‘rganilgan turlarning barchasi bahorgi va yozgi yashil efemeroid turlar hisoblanib,

vegetatsiya davomiyligi 75-130 kun, yani fevral va iyul oylariga to‘g‘ri kelishi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Turkum turlarining fenospektri (2019 y.)

Gullash muddatlariga ko‘ra erta (mart-aprel), o‘rta (aprel) va kech (may-iyun) gullovchi guruhga ajratildi: erta gullovchi turlar – *E. lachnostegius, E. aitchisonii, E. suworowii, E. lactiflorus, E. alberti, E. baissunensis;* o‘rta gullovchi turlar – *E. luteus, E. regelii, E. robustus, E. altaicus, E. ambigens, E. hissaricus;* kech gullovchi turlar – *E. turkestanicus, E. olgae, E. tianschanicus, E. stenophyllus, E. soogdianus*. Turlarning introduksiya sharoitida vegetatsiyasi hamda gullashning boshlanish vaqti kuzatilayotgan ob-havo sharoitlariga bog‘liq holda o‘zgarib turadi. Bunday o‘zgarishlar 5 dan 23 kungacha bo‘lishi mumkin. Shu munosabat bilan turkum turlari gullashning boshlanishiga ko‘ra bir guruhdan ikkinchisiga o‘zgarishi mumkin.

2017-2022-yillar davomida turlarning mavsumiy rivojlanishi: vegetatsiyasining boshlanishi, g‘unchalash, gullashning boshlanishi, mevalarning yetilishi va vegetatsiyasining tugashi jarayonlarida foydali haroratlar yig‘indisi o‘rganildi. Bunda erta gullovchi turlardan *E. lachnostegius, E. aitchisonii, E. alberti, E. lactiflorus* ning vegetatsiyasi boshlaganidan, dastlabki gullari ochilishigacha bo‘lgan foydali haroratlar yig‘indisi +200+500ºC ni tashkil etgan bo‘lsa, *E. suworowii, E. baissunensis* turlarida foydali haroratlar yig‘indisi +500+650ºC ni tashkil etdi. O‘rta gullovchi turlar – *E. luteus, E. regelii, E. robustus, E. altaicus, E. ambigens, E. turkestanicus, E. hissaricus* ning vegetatsiyasi boshlaganidan, daslabki gullari ochilishigacha bo‘lgan foydali haroratlar yig‘indisi +550+900ºC ni tashkil etdi. Kech gullovchi turlar – *E. olgae, E. tianschanicus, E. stenophyllus, E. soogdianus* ning vegetatsiya boshlaganidan, daslabki gullari ochilishigacha bo‘lgan foydali haroratlar yig‘indisi +900+1850ºC ni tashkil etdi.

Bobning ikkinchi bo‘limida *Eremurus* turkumi ayrim turlarining populyatsiyalari ichidagi urug‘ xilma-xilligini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot natijalari keltilgan. Populyatsiyalar ichidagi urug‘ xilma-xilligi o‘rganilganda,

urug‘lar sonining o‘zgaruvchanligi - *E. altaicus* turida 40,5% dan, *E. olgae* turida 95,6% gacha bo’lishi aniqlandi. 1000 dona urug‘ massasining o‘zgaruvchanligi (bundan keyin matnda urug‘larning absolyut massasi deb yuritiladi) ancha past ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi - *E. altaicusda* 5,6% dan *E. olgae* da 31,4% gacha (1 jadval).

1-jadval

***Eremurus* turkumi turlari generativ o‘simliklarning introduksiya sharoitida urug‘ soni va uning absolyut massasining o‘zgaruvchanligi**


Turlar	*n*		Urug‘lar soni	Urug‘ning absolyut og‘irligi, g
Eremurus altaicus	14	*min–max*	353–1222	10.0–11.8
		V,%	40	5.6
E. olgae	10	*min–max*	29–1497	4.6–12.4
		V,%	96	31
E. regelii	40	*min–max*	6–1453	4.7–11.2
		V,%	66	18
E. stenophyllus	86	*min–max*	56–1386	3.7–11.7
		V,%	58	18
E. tianschanicus	19	*min–max*	20–546	7.9–8.6
		V,%	46	13

Urug‘larning absolyut massasining o‘zgaruvchanligiga ko‘ra, quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- kuchsiz o‘zgaruvchan – variatsiya koeffitsiyenti *V* 7% dan kam (*E. altaicus*);
- o‘rtacha o‘zgaruvchan – *V* 13-20% tashkil etadi *E. regelii, E. stenophyllus* va *E. tianschanicus*);
- kuchli o‘zgaruvchan – *V* 21-40% (*E. olgae*).

Qayd etish lozimki, o‘rganilgan turlarda urug‘lar soni va ularning massa o‘zgarish darajasi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud.

Tahlil natijalari, o‘rganilgan turlar absolyut urug‘ og‘irligi taqsimlanishiga ko‘ra bir cho‘qqili qiyshiq diagramma hosil qildi (2-rasm). Ko‘pchilik o‘simliklar urug‘ining absolyut massasi *E. stenophyllus* 5-7 g, *E. tianschanicus* 7-9 g, *E. regelii* 9-11 g bilan ajralib turadi.



2- rasm. *Eremurus* turlari urug‘larining poyadagi 1000 dona urug‘ning quruq og‘irligiga ko‘ra taqsimlanishi %

1 – *E. stenophyllus,* 2 – *E. regelii,* 3 – *E. tianschanicus*. *Gorizontal holatda* – urug‘ning massasi, g; *vertikal holatda* – o‘simliklar ulushi

Ushbu bobning uchinchi bo'limida *E. altaicus, E. regelii* va *E. olgae* misolida barglar sonining ko‘payishi bilan aksariyat morfometrik ko‘rsatkichlarning ham oshishi aniqlandi. Shunday qilib, statistik jihatdan ishonchli o‘zgarishlar ostki barglarning eni, mevalar va ularning soni, yana gulpoyadagi urug‘lar soni uchun qayd etildi. Gulpoyadagi gullar va urug‘lar sonidagi o‘zgarishlarda barcha turlardagi aniq o‘sish tendensiyasi qayd etilgan.

Shuni ta’kidlash kerakki, urug‘lar soni (XUM) gulpoyaning uzunligi ortganda nafaqat gullar sonining ortishi orqali (PUM), balki meva hosil bo‘lishi va mevalardagi urug‘lar soniga ortishiga bog‘liqdir, bu esa UMK ning ijobiy dinamikasini ko‘rsatmoqda. Bu ayniqsa *E. regelii* da gullarning soni 14-16 bargli o‘simliklarda 322,7±36,84 dan, 20-26 bargli o‘simliklarda 390,0±1,00 gacha o‘sib boradi va bir vaqtning o‘zida meva hosil bo‘lishi 34,2±4,29 dan 64,6±10,86 ($P<0.05$) gacha o‘sib boradi va meva ichidagi urug‘lar soni 4,1±0,52 dan 4,8±0,11 gacha oralig‘ida ortib boradi.

Shunday qilib, o‘rganilayotgan *Eremurus* turlari o‘zgaruvchan reproduktiv strategiya bilan tavsiflanadi va uning samaradorligi poyadagi barglar soniga (vitalitetiga) bog‘liq. Urug‘ mahsuldorlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarish tabiatini o‘simlik yashovchanligiga (vitalitetiga) bog‘liqligi, o‘rganilgan turlarda ular qaysi seksiyaga mansubligidan qat’iy nazar o‘xshashdir.

Introduksiya qilingan *Eremurus* turlarining urug‘ hosil bo‘lishiga ekologik omillarning ta‘siri *E. olgae, E. regelii* va *E. robustus* o‘simliklarda quyoshli, yarim soya (kun davomida 2-4 soat soya bo‘ladigan) va soyali (kunning 20% vaqtidagina quyosh yetarli yorita oladigan) sharoitlarda kuzatuv olib borildi. O‘rganilgan *Eremurus* turlarining ekologik omillarga nisbatan o‘zgarishi ularning tabiiy sharoitdagi o‘sish muhiti bilan bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Yorug‘likning kamayishi o‘rganilgan turlarda umumiy holatda bir ko‘rsatkich – poyadagi urug‘lar sonining kamayishiga olib keldi. *E. olgae* turida bu holat gulpoyadagi gullar sonining kamayishiga ham olib keladi (shu bilan bog‘liq ravishda PUM ning kamayishiga ham), *E. regelii* turida gullar sonining kamayishi va meva hosil bo‘lish jarayonining kamayishi bilan, *E. robustus* turida meva hosil bo‘lish jarayonining kamayishida o‘z aksini topadi.

Soyaga nisbatan chidamlilik xususiyati turli ekologik mintaqalarda tarqalgan *E. olgae* turida kuzatilib, urug‘lar sonining kamayishi urug‘larning absolyut og‘irligi ortishi hisobiga to‘ldiriladi. Soyaga nisbatan kamroq chidamlilik xususiyati ochiq hududlarda tarqalgan *E. regelii* turida kuzatilib, yorug‘lik yetishmasligi tufayli urug‘lar sonining kamayishi bevosita urug‘larning absolyut og‘irligining ham kamayishiga olib keldi.

Yong‘oq va archazorlarda o‘sadigan *E. robustus* introduktsiya sharoitida mevalarning kam tugilishi bilan tavsiflanadi – 5,8±0,88%. Gullash davrida havoning nisbiy namligi yuqori bo‘lgan iliq ob-havoning kombinatsiyasi bilan meva tugilishi 55,5±5,63% gacha ko‘tariladi.

Meva tugilishi, kurtak va mevadagi urug‘lar soni kabi generativ soha ko‘rsatkichlariga urug‘ massasining korrelyatsion bog‘liqligini aniqlash qiziqish uyg‘otdi. *Eremurus* turlari gulpoyasi ko‘p gulli bo‘lishi bilan xarakterlanadi, unda

mevalar soni turlicha hosil bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, korrelyatsion tahlil gulpoyaning yuqori, o‘rta va ostki qismlari uchun alohida alohida amalga oshirildi (2 jadval). Ma’lumotlar 2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘rganilgan turlarda nafaqat korrelyatsion aloqalar, balki ularning yo‘nalishi ham sezilarli darajada farqlanadi. Eng ko‘p ajralib turadigan *E. regelii*, bu o‘simlik gulpoyasining barcha qismlarida korrelyatsion bog‘lanish (yoki ortib boruvchi tendensiya) urug‘ning absolyut og‘irligi meva hosil bo‘lishi va urug‘lar soni bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqdir. *E. altaicus* da salbiy korrelyatsion bog‘liqlik aniqlandi, shu bilan birga gulpoyaning ostki qismidagi urug‘larning absolyut og‘irligi mevalar va urug‘lar soniga bog‘liq, o‘rta qismida faqat gulpoyadagi urug‘lar soniga.

Eremurus seksiyasi orasida kuchsiz korrelyatsion bog‘lanish *E. stenophyllus* turida eng zaif ekanligini isbotladi. Gulpoyaning barcha qismlarida absolyut og‘irlikka nisbatan faqatgina mevalardagi urug‘lar sonigina teskari korrelyatsion natija ko‘rsatdi. Natija yuqori va o‘rta qismlarida ishonchli darajada farq qilsa, pastki qismida yaqqol tendensiya ko‘rinishida natija ko‘rsatdi. *E. regelii* va *E. altaicus* dan farqli o‘laroq *E. stenophyllus* urug‘larning massasi ularning umumiy soniga bog‘liq emas.

2-jadval

***Eremurus* turlarida urug‘ absolyut og‘irligining urug‘ mahsuldorlik ko‘rsatkichlari bilan korrelyatsion bog‘liqligi**

Turlar	*n*	To‘pgulning qismi	Meva hosil bo‘lishi, %	Urug‘lar soni	
				Jami	Mevada
Eremurus altaicus $r_{0.05}$≤0.53	14	Pastki	0.34	–0.73	–0.58
		O‘rta	–0.35	–0.73	–0.33
		Yuqori	0.37	0.18	0.11
E. olgae $r_{0.05}$≤0.63	10	Pastki	0.01	0.65	–0.26
		O‘rta	–0.38	–0.09	–0.50
		Yuqori	–0.42	–0.33	–0.27
E. regelii $r_{0.05}$≤0.34	33	Pastki	0.72	0.72	0.004
		O‘rta	0.62	0.57	0.23
		Yuqori	0.30	0.43	0.27
E. stenophyllus *r0.05≤0.21*	86	Pastki	–0.04	–0.09	–0.20
		O‘rta	–0.08	–0.05	–0.28
		Yuqori	0.24	0.07	–0.61
E. tianschanicus $r_{0.05}$≤0.46	19	Pastki	0.03	–0.35	–0.23
		O‘rta	–0.10	–0.20	–0.16
		Yuqori	0.37	–0.16	–0.50


Izoh: korrelyatsiya koeffitsientining ishonchli qiymatlari alohida belgilangan (P <0.05).

Henningia seksiyasiga mansub *E. olgae* va *E. tianschanicus* turlarida korrelyatsion bog‘liqlik faqat bitta holatda, mevadagi urug‘lar soni bilan *Eremurus* seksiyasi turlariga qaraganda sezilarli farq qiladi.

Eremurus turkumi turlarining urug‘ mahsuldorligi bo‘yicha ko‘p yillik ma‘lumotlarni tahlil qilganda, O‘zbekiston Respublikasi qizil kitobiga kiritilgan (2019) turlarning urug‘ mahsuldorligi keng tarqalgan turlarga qaraganda ancha past ekanligi aniqlandi. Qizil kitobga kiritilgan turlarda urug‘ mahsuldorligi *E. lactiflorus* da 2,3 dan 8,5% gacha, *E. robustus* da 3,6 dan 21,4% gacha,

E. suworowii da 35,6 dan 36,4% gacha, *E. aitchisonii* da 1,3 dan 22,3% gacha, *E. luteus* da 7,6 dan 43,1% gacha (3 rasm). Keng tarqalgan turlarda urug‘ mahsuldorligi: *E. regelii* da 34,6 dan 55,3% gacha, *E. altaicus* da 31,7 dan 49,8% gacha, *E. tianschanicus* da 19,6 dan 43,8% gacha.

Shu bilan birga, kamyob turlarning urug‘lari keng tarqalgan turlarga qaraganda 2-3 baravar kattaroqdir.



3-rasm. Qizil kitobga mansub va keng tarqalgan turlarning introduksiya sharoitida urug‘ mahsuldorligi, 2016-2019 yillar


Dissertatsiyaning “***Eremurus* turkumi turlarining urug‘idan va vegetativ ko‘payish biologiyasi**” deb nomlangan uchinchi bobi, Qizil kitobga kiritilgan va keng tarqalgan *Eremurus* turlari urug‘larining unuvchanligi, urug‘lar xilma-xilligining ularning unib chiqishi va nihollarining rivojlanishiga ta’siri, introdutsentlarning tabiiy vegetativ ko‘payish xususiyatlarini qiyosiy o‘rganilishiga bag‘ishlangan.


Eremurus ning keng tarqalgan turlarining urug‘lari introduksiya sharoitida yuqori unuvchanlik xususiyatiga ega ekanligi aniqlandi - *E. altaicus*da 81% dan *E. olgae* va *E. stenophyllus* da 94.6% gacha (4-rasm). Barcha turdagi bir yillik o‘simliklarning saqlanuvchanligi 90% dan oshadi.

Qizil kitob kiritilgan turlar orasida urug‘larning yuqori unuvchanligi faqat *E. suworowii* (90.3%) va *E. alberti* (84.5%) da kuzatilgan. Boshqa turlarda u ancha past – *E. aitchisonii* da 38% dan *E. lactiflorus*da 67.4% gacha. Ushbu turlarning bir yillik nihollarning saqlanuvchanligi ko'p hollarda 90% dan yuqori bo'lgan, *E. luteus* (67%) va *E. suworowii* (57%) dan tashqari (4 rasm).

Urug‘ning absolyut og‘irligi urug‘ unuvchanlikka ta’sirini o‘rganish uchun ularni har bir turini alohida yirik, o‘rtacha va mayda urug‘larga ajratildi. Absolyut og‘irlik har bir fraksiyalar uchun aniqlandi. Birinchi yilgi nihollarni kuzatish natijalari 3- jadvalda keltirilgan.

Olingan ma’lumotlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘rganilgan turlar turli fraktsiyalar urug‘larining unuvchanlik darajasi 34-40% dan 80-95% gacha o‘zgarib turadi. Urug‘lar massasining pasayishi bilan unuvchanlikning pasayishi kuzatiladi. *E. altaicus* dan tashqari barcha turlarda mayda guruh urug‘larining unuvchanligi deyarli 2 baravar farq qilgan.





4-rasm. O‘zbekiston Qizil kitobiga (2019) kiritilgan va keng tarqalgan turkum vakillarining urug‘ unuvchanligi va nihollarining saqlanuvchanligi

3-jadval

***Eremurus* turlari urug‘lari mutloq massasining ularning unib chiqishi va nihollar bargining o‘lchamlariga ta’siri**

Turlar	Urug‘lar			Barg, *n*=30	
	Fraktsiya	Mutloq massasi, gr	Unuvchanlik, %	Uzunligi, sm	Eni, mm
E. altaicus	Mayda	9.1	75.2±2.16	11.3±0.25	1.4±0.07
	O`rtacha	10.3	65.8±2.37	11.3±0.25	1.8±0.06
	Yirik	12.6	81.0*)±1.96	12.2±0.16	2.0*)±0.04
E. olgae	Mayda	3.1	34.0±2.37	14.8±0.50	1.4±0.07
	O`rtacha	7.0	85.5±1.76	18.9±0.30	2.3±0.01
	Yirik	8.5	65.8*)±2.37	18.3±0.4	2.7*)±0.01
E. regelii	Mayda	5.9	40.3±2.45	11.5±0.27	1.3±0.07
	O`rtacha	10.1	82.0±1.90	14.2±0.25	1.9±0.05
	Yirik	12.1	86.5±1.71	17.8*)±0.28	2.0±0.00
E. stenophyllus	Mayda	3.4	50.3±2.50	14.5±0.39	1.1±0.05
	O`rtacha	5.1	87.4±1.65	15.2±0.34	1.4±0.07
	Yirik	6.7	94.6*)±1.13	17.1*)±0.24	1.7*)±0.06
E. tianschanicus	Mayda	5.3	41.0±2.46	16.6±0.35	2.3±0.08
	O`rtacha	7.0	67.0±2.35	16.4±0.35	2.6±0.07
	Yirik	9.0	87.5*)±1.65	16.2±0.34	2.9*)±0.07

Izoh: kichik urug'lardan farq qiladigan o‘simliklar ko‘rsatkichlaridan sezilarli darajadagi qiymatlar qayd etilgan (p <0.05); *) – o‘rtacha urug‘lardan farq qiladigan o‘simliklarning ishonchli ko‘rsatkichlarining mavjudligi (p <0.05).

Bir yillik nihollar bargining morfometrik tahlili shuni ko‘rsatdiki, deyarli barcha turlarda urug‘ massasining oshishi bilan bargning uzunligi va kengligi tabiiy ravishda oshib boradi. Shu bilan birga, kenglik, aksariyat hollarda, uzunlikdan ko‘ra ko‘proq labil bo‘lib chiqdi. Shunday qilib, *E. altaicus* da bargning uzunligi o‘rtacha 1,1 baravar, kengligi 1,4 baravar, *E. olgae* mos ravishda 1,2 va 1,9 baravar, *E. stenophyllus* da 1,2 va 1,5 baravar, *E. tianschanicus* da bargning uzunligi o‘zgarmagan holda kengligi 1,2 baravarga oshadi.

Ikki yillik o‘simliklar kuzatilganda boshlang‘ich urug‘larning fraktsiyasidan qat‘iy nazar, barcha turlarda ularning yuqori darajada saqlanganligi aniqlandi (4 jadval). O‘rganilgan turlar orasida ikki guruh ajralib turadi:

– urug‘larining massasi o‘simliklarning dastlabki rivojlanish sur‘atlariga ta‘sir qilmaydigan turlar - *E. altaicus*, *E. regelii* va *E. tianschanicus*;

– urug‘larning kattaligi o‘simliklarning jadal rivojlanishiga yordam beradigan

turlar – *E. olgae* va *E. stenophyllus.* Barglarining o‘rtacha sonidagi ishonchli farqlar ko‘proq ikki bargli o‘simliklar hisobi orqali erishildi ($p < 0.05$).

Ikkinchi yil vegetatsiya davri tugagandan so‘ng o‘simliklar qazib olindi va ildizpoyalarning zaxira ildizlar bilan birgalikdagi vazni va zaxira ildizlar soni bo‘yicha tahlil qilindi (4 jadval).

Ma’lum bo‘lishicha, ikki yillik o‘simliklarda zaxira ildizlar soni bo‘yicha tajriba variantlari o‘rtasidagi farqlar ahamiyatsiz bo‘lib, faqat *E. olgae* va *E. regelii* da statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lgan.

4 jadval

Boshlang‘ich urug‘larning fraktsiyasiga bog‘lik holda, o‘rganilgan *Eremurus* turlari ikki yillik o‘simliklarning morfometrik ko‘rsatkichlari

Turlar	Urug‘lar frak-tsiyasi	Bir yillik o‘simliklar-ning saqlanuv-chanligi, %	Barglarning o‘rtacha soni	Barglarning soni bo‘yicha o‘simliklarning taqsimlanishi, %		
				1 barg	2 barg	3-4 barg
E. altaicus	M	100.0	1.42±0.03	58.0±2.85	42.0±2.85	-
	O‘	96.6	1.49±0.03	51.2±3.14	48.8±3.14	-
	Y	100.0	1.49±0.03	51.2±2.78	48.8±2.78	-
E. olgae	O‘	98.6	1.56±0.03	53.3±2.62	45.3±2.61	1.4±0.58
	Y	99.2	1.77±0.03	26.8±2.74	69.7±2.84	3.5±1.11
E. regelii	O‘	97.9	1.53±0.03	46.7±2.73	53.3±2.73	-
	Y	99.4	1.52±0.03	47.6±2.69	52.4±2.69	-
E. steno-phyllus	O‘	99.7	1.73±0.03	29.6±2.43	68.2±2.48	2.3±0.79
	Y	100.0	1.87±0.02	16.7±1.91	79.1±2.08	4,2±0.99
E. tian-schanicus	O‘	100.0	1.74±0.03	26.9±2.71	72.4±2.73	0.8±0.53
	Y	99.4	1.79±0.02	22.7±2.25	75.9±2.29	1.4±0.64

